Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishda neyropedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati	636
<i>Jumayeva Maxbuba O'ktam qizi</i>	
Inklyuziv ta'lim muhitida musiqa darslarini tashkil etishning uslubiy asoslari	641
<i>Narzikulov Javohir Ikromovich</i>	
Диагностический потенциал формирования критического мышления в оценке нравственной воспитанности студентов педагогических вузов.....	645
<i>Азимова Гулрухбону, Абдувалиева Мухайё</i>	



Musiqa darslarida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlari....	652
<i>Ochilova Mohinur</i>	
Oliy ta'limda fransuz tilini o'qitishda qr-kod texnologiyalarining samaradorligi	656
<i>Muzaffarova Nodira Mardonovna</i>	
Смарт-технологии как инструмент повышения эффективности управления	660
<i>Байбаева Мухайё Худайбергеновна, Дехконова Мохларойим Бахтиёржон кизи</i>	
Odam markaziy asab tizimi taraqqiyoti va uni rivojlantirishning amaliy yechimlri.....	664
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Mentimeter dasturi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	669
<i>Djabbarova Xabiba Kuvandikovna</i>	
Talabalarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda yangi renessans pedagogikasining o'rni.....	673
<i>Qlicheva Go'zal Chorshanbiyevna</i>	
Kognitiv rivojlanish zamonaviy ta'lim nazariyasida kompleks fenomen sifatida	678
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i>	
Kursantlarning maxsus chidamkorligini oshirishda qo'llaniladigan vosita va usullar	681
<i>I. B. Bobomuratov</i>	
The Main Aspects of the Development of Digital Literacy in Higher Pedagogical Education	685
<i>Yusupova Go'zal Oybek qizi</i>	
Conceptual Approaches to Understanding Fanaticism Among Female Adolescents.....	689
<i>Sobirova Sojidxon Akramjon qizi</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarida basketbol texnika va taktikasini shakllantirishning pedagogik asoslari.....	692
<i>Bobojonov Nozimjon Ne'matjonovich, Sirojiddin Nasriddinov Salohiddin o'g'li</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa nazariyasi va solfedjio darslarining pedagogik xususiyatlari	695
<i>Bobojonova Zeboxon Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish ..	699
<i>Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich</i>	
Talabalar identiteti va ularga ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining global ahamiyati	702
<i>N. T. Tojiboyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning zamonaviy usullari	707
<i>Narzullayev Mavlonbek Zikrillo o'g'li, Ostonov Zafar Zamonovich</i>	
Ta'lim metodlari va usullarini modernizatsiya qilish asosida ilmiy tadqiqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	710
<i>Olimov Temir Xasanovich</i>	
Changes in Adolescents' Communication Under the Influence of Social Media: Emotional Intelligence and Internet Addiction Issues	715
<i>Salomov Shamsiddin Sabokhiddin Ugli</i>	
O'smir qizlarning jismoniy rivojlanishini takomillashtirishda defile mashqlaridan foydalanish metodikasi ...	720
<i>Shaxbazova Gulrux Orifjon qizi, Abdullayeva Maxbuba</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish metodikasi.....	724
<i>Ubaydullayeva Nazokat Ibodullo qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariy asoslar, amaliy modellar va innovatsion yondashuvlar	728
<i>Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi</i>	
Talaba-yoshlar jismoniy madaniyat va sportini rivojlantirishning strategik imkoniyatlari	733
<i>Yusupxo'jayev Oxunjon Shuxrat o'g'li</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....	737
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Компенсация трудностей в обучении детей младшего школьного возраста, находящихся на длительном лечении	742
<i>Алимова Нигора Исраиловна, Холлиева Нодира Хайтмуратовна</i>	

Формирование профессиональных компетенций будущих художников через освоение узбекского орнамента в системе заданий по композиции.....	745
Д. Б. Бабаева	
Методика и подходы обучения речи в школьной практике	750
Шарипов Одилжлон Гуломжон угли	
Iqtidorli talabalarni aniqlash va rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar	754
Abdiyeva E'zoza Beknazar qizi	
Innovatsion menejment tizimida malakali kadrlar tayyorlashning samarali mexanizmlari	759
Hikmatova Niginabonu Siddiq qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni anonim baholash tizimining ishonchligi va pedagogik samaradorligini baholash.....	764
Maksudova Aziza Ikramdjanovna, Akramxo'jayev Yo'ldoshxo'ja Tursunxo'jayevich, Avezov Toshtemir Abdualiyevich, Abdullayeva Maftuna Shonazarovna	
Raqamli ta'lim muhitida mexanikani o'qitishning pedagogik muammolari.....	771
Choriyev Islom G'ayratovich	
Musiqqa mashg'ulotlarida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.....	775
Siddiqova Gulnoza Sharaviddinovna, Bahora Akbarova	
Moychechak yetishtirishda mineral va organik o'g'itlarning ta'siri	778
Jabbarova Nigina Zoxidjon qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv sharoitida bo'lg'usi matematika o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish	783
Esonov Munavvarjon Mukimjonovich, Xabibullayev Islomjon Soyibjon o'g'li	
Специфика формирования математического мышления студентов вузов посредством модуля "векторы"	786
Эсонов Мунавваржон Мукимжонович, Салихов Амир Тимурович	
Autizm spektri buzilishiga ega bolalar oilalarida sibling munosabatlarining nazariy-metodologik asoslari..	790
Rayimova Gulchehra Utkur qizi	
Особенности использования инструментов управления проектами: отраслевой подход.....	794
Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etishda qiyinchiliklar va samarali strategiyalar.....	800
Abdalimova Iroda Ummatqul qizi	
Manzara janrining tasviriy san'atdagi o'rni: ekologik-estetik mazmuni va ta'limiy imkoniyatlari	805
Abdumajidova O'g'iloy Ravshanjon qizi	
E-Assessment vositalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va funksional imkoniyatlari.....	809
Abdumannopov Murodjon Ilxomjon o'g'li	
Masofaviy ta'lim jarayonida talabalar faolligini oshirishning interfaol metodlari.....	813
Abduvaxobov Shohruhbek Ikromjon o'g'li	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlashdagi muammolar	816
Davlatova Furuza Kamolovna	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim va zoologiya fanini o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish	820
Hayitov Abdurasul Eshdaviatovich, Xolboyeva Nigina Uchqunovna, Ravshanov Asliddin Ulug'bek o'g'li	
Sport gimnastikasida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning pedagogik va amaliy jihatlari.....	826
Karimov Doniyor Komil o'g'li	
Neyropsixologiya va neyropedagogikaning shakllanishi va rivojlanish tarixi.....	830
N. O. Saidova	
Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishining nazariy asoslari.....	833
Nosirova Shoxsanam Negmat qizi	
Maxsus pedagogning kasbiy kompetentligi: zamonaviy yondashuvlar va muammolar	837
Shodiyeva Gulchiroy Nurqosimovna	
O'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirishda tasviriy san'at va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish.....	841
Tulaganov Jahongir Abdimurot o'g'li	



Vizual ta'lim texnologiyalari yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini diagrammaviy masalalar yordamida rivojlantirish	845
<i>Usmonova Shahlo Saidjon qizi</i>	
Biologiya darslarida o'quvchilarning ilmiy xabardorlik kompetensiyasini shakllantirishda mashq va masalalardan foydalanish metodikasi	849
<i>Yakubova Fotima Xamza qizi</i>	
Система духовных ценностей в современной русской прозе (а. волос “сирийские розы”)	853
<i>Ольга Чангировна Хегай</i>	
Alohida yordamga muhtoj bolalar toifalari va ularning pedagogik-psixologik tasnifi	856
<i>Xaydarova Umidaxon Baxromjon qizi</i>	
Rang nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklar va paremiyalarda milliy-madaniy xususiyatlar	858
<i>Azizova Zarina Alixanovna</i>	
Kvest o'yinlari orqali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida	861
<i>Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Davronova Ra'no Komilovna</i>	
Dizayn o'ylash jarayonini bolalar bilan mashg'ulotda qo'llashning metodik yondashuvlari	865
<i>Hasanova Sevinchoy Ramazon qizi</i>	
Umumta'lim maktablari fizika ta'limida mexanika bo'limini izchillik yondashuvi asosida o'qitish zaruriyatining ilmiy asoslari	869
<i>Yusupov Dilmurud Abdurashidovich, Azimova Shahnoza Akramjon qizi</i>	
STEAM va ijodiy metodlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarni tayyorlash: triz, montessori va mnemotexnikani integratsiyalash	873
<i>Abdumajitova Sayyohat Abduqosimovna</i>	
O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish metodikasini tadqiq etish modeli	877
<i>Usmanova Sabohat Erkinovna</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning pedagogik mohiyati	880
<i>Abdunazarova Zebiniso Xudoyshukurovna</i>	
Shaxs psixik rivojlanishida sog'lom turmush tarzi va atrof-muhit ta'sirining ahamiyati	884
<i>B. Raximov</i>	
Boshlang'ich ta'limda STEAM integratsiyasi: tajribalar va innovatsion yondashuvlar	887
<i>Bozorov Nurbek Alisher o'g'li, Muxtarova Lobar Abdimannabovna</i>	
Ona tili darslarida o'qish savodxonligini oshirishda matn bilan ishlash	890
<i>Erdanova Zamira Olimovna</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik texnologiyalarni qo'llashning metodik asoslari	894
<i>Murotova Gulnoza Saidqulovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida fanlararo absissial va ordinal aloqadorlikni rivojlantirish	897
<i>Muxtarova Lobar Abdimannabovna</i>	
Tabiiy fanlarni o'rgatishda kompleks yondashuv	900
<i>Qodirxonova Gulnozaxon Odilxon qizi, Zokirov Furqat Mansurovich</i>	
Современные подходы к формированию содержания общего среднего образования на основе зарубежного опыта	902
<i>Хакимова Дилдора Машрабжоновна</i>	
Интегрatsiyalashgan yondashuv asosida o'qish savodxonligi darslarini tashkil etish metodikasi	907
<i>Sirojova Sug'diyona Ilyos qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirish	911
<i>Mavlonova Gulchehra G'ulomovna</i>	



INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUV ASOSIDA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Sirojova Sug'diyona Ilyos qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada integratsiyalashgan yondashuv asosida o'qish savodxonligi darslarini tashkil etish metodikasi yoritilgan. Tadqiqot doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matni tushunish, tahlil qilish hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik model ishlab chiqilgan. Dars jarayoni motivatsiya, o'qish, tahlil, refleksiya va natija bosqichlari asosida tizimli ravishda tashkil etilgan hamda tajriba-sinov ishlari orqali uning samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari integratsiyalashgan yondashuv o'qish savodxonligini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, integratsiyalashgan yondashuv, boshlang'ich ta'lim, matn tahlili, refleksiya, interaktiv metodlar, fanlararo integratsiya, pedagogik texnologiya, kompetensiya, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article examines the methodology for organizing reading literacy lessons based on an integrated approach. The study develops a methodological model aimed at enhancing primary school students' skills in text comprehension, analysis, and independent thinking. The instructional process is systematically structured into stages, including motivation, reading, analysis, reflection, and outcome, and its effectiveness is substantiated through experimental research. The findings demonstrate that the integrated approach serves as an effective pedagogical tool for improving reading literacy.

Key words: reading literacy, integrated approach, primary education, text analysis, reflection, interactive methods, interdisciplinary integration, pedagogical technology, competence, learning effectiveness.

Аннотация: В данной статье рассматривается методика организации уроков читательской грамотности на основе интегрированного подхода. В рамках исследования разработана методическая модель, направленная на развитие у учащихся начальных классов навыков понимания текста, его анализа и самостоятельного мышления. Учебный процесс структурирован по этапам: мотивация, чтение, анализ, рефлексия и результат, а его эффективность подтверждена экспериментальными исследованиями. Полученные результаты свидетельствуют о том, что интегрированный подход является эффективным педагогическим средством развития читательской грамотности.

Ключевые слова: читательская грамотность, интегрированный подход, начальное образование, анализ текста, рефлексия, интерактивные методы, межпредметная интеграция, педагогическая технология, компетенция, эффективность обучения.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va axborot oqimining keskin ortib borayotgan sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri - o'quvchilarda mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish va uni to'g'ri anglash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi^[1]. Chunki aynan shu bosqichda shakllangan o'qib tushunish, matn ustida ishlash va mazmuni tahlil qilish ko'nikmalari keyingi ta'lim bosqichlarining samaradorligini belgilaydi.

So'nggi yillarda ta'lim sifatini baholashning xalqaro mezonlari keng joriy etilmoqda. Jumladan, PIRLS dasturi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish darajasini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda matni anglash, axborotni izlab topish, tahlil qilish va baholash kabi muhim kompetensiyalar asosiy mezon sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv o'qish savodxonligini rivojlantirishda an'anaviy metodlardan ko'ra zamonaviy, integratsiyalashgan usullarni qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi.

Integratsiyalashgan yondashuv ta'lim jarayonida turli fanlar mazmunini o'zaro uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda yaxlit bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi^[2]. Ayniqsa, o'qish darslarida mazkur yondashuvni qo'llash matn mazmunini chuqurroq anglash, uni boshqa fanlar bilan bog'lash hamda o'quvchilarning fikrlash faolligini oshirish imkonini beradi. Bu esa o'qish savodxonligini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi - integratsiyalashgan yondashuv asosida o'qish savodxonligi darslarini tashkil etish metodikasini ilmiy asoslash hamda uning amaliy samaradorligini ko'rsatib berishdan iborat. Tadqiqot davomida o'qish darslarini fanlararo integratsiya asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi hamda samarali metod va usullar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi tadqiqotlar o'qish savodxonligini rivojlantirishni ko'p komponentli jarayon sifatida talqin qilib, unda matnni anglash, tahlil qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining uzviy bog'liqligini asoslaydi. Xalqaro va mahalliy ilmiy ishlarda o'quv jarayonini faollashtiruvchi, fanlararo aloqadorlikni ta'minlovchi yondashuvlar samarali deb e'tirof etilgan. Shu bilan birga, integratsiyalashgan o'qish darslarini bosqichma-bosqich tashkil etish va ularni aniq natijaviy ko'rsatkichlar bilan bog'lash yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi aniqlanadi.

Mazkur tadqiqotda ushbu muammoni hal etish maqsadida nazariy tahlil, pedagogik kuzatish va tajriba-sinov metodlari qo'llanildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan tajriba jarayonida o'qish savodxonligi darajasi maxsus topshiriqlar orqali baholanib, natijalar foiz ko'rsatkichlarda tahlil qilindi. Darslar motivatsiya, o'qish, tahlil, refleksiya va natija bosqichlari asosida tashkil etilib, interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlandi. Olingan natijalar qiyosiy tahlil asosida umumlashtirilib, integratsiyalashgan yondashuvning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'qish savodxonligini shakllantirish jarayoni murakkab ko'p komponentli tizim bo'lib, u nafaqat matnni o'qish, balki uning mazmunini anglash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va turli kontekstlarda qo'llay olish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi^[3]. Shu sababli zamonaviy ta'lim amaliyotida mazkur kompetensiyani rivojlantirishda an'anaviy yondashuvlar yetarli samara bermasligi kuzatilmoqda. Bu esa dars jarayoniga yangi, samarali pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi.

Integratsiyalashgan yondashuv ana shunday samarali vositalardan biri bo'lib, u o'quvchilarning bilimlarini alohida fanlar doirasida emas, balki o'zaro bog'liq holda shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv asosida tashkil etilgan o'qish darslarida matn mazmuni boshqa fanlar bilan uzviy bog'lanadi. Masalan, badiiy matnlarni tahlil qilish jarayonida tabiatshunoslikka oid tushunchalar, matematik elementlar yoki ijtimoiy hayotga doir faktlar bilan integratsiya qilinishi o'quvchilarning tushunish darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Integratsiyalashgan o'qish darslarini tashkil etishda bir necha metodik bosqichlarni ajratish maqsadga muvofiqdir.

- *Birinchi bosqich* - **motivatsion bosqich** bo'lib, unda o'quvchilarning mavzuga qiziqishi uyg'otiladi va ularning mavjud bilimlari faollashtiriladi. Bu bosqichda turli savol-javoblar, muammoli vaziyatlar yoki vizual materiallardan foydalanish samarali hisoblanadi.
- *Ikkinchi bosqich* - **asosiy o'qish jarayoni** bo'lib, bunda matn ustida ishlash amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda o'quvchilar matnni ongli o'qish, muhim ma'lumotlarni ajratib olish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash kabi faoliyatlarni bajaradilar. Aynan shu jarayonda integratsiya elementlari keng qo'llaniladi. Masalan, matnda keltirilgan hodisani boshqa fan nuqtai nazaridan izohlash yoki real hayotiy misollar bilan boyitish o'quvchilarning tafakkurini kengaytiradi.
- *Uchinchi bosqich* - **tahlil va refleksiya bosqichi** bo'lib, unda o'quvchilar o'qilgan matn yuzasidan mustaqil fikr bildiradilar, muhokama olib boradilar va xulosalar chiqaradilar. Bu bosqichda interaktiv metodlardan, xususan, "aqliy hujum", "klaster", "INSERT" kabi usullardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi hamda ularning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etilgan darslar samaradorligini baholashda o'quvchilarning matnni tushunish darajasi, tahlil qilish qobiliyati va mustaqil fikr yurita olish ko'rsatkichlari asosiy mezon sifatida qaraladi^[4]. Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuv qo'llanilgan sinflarda o'quvchilarning darsga qiziqishi ortadi, ular matn bilan faol ishlashga intiladilar hamda bilimlarini turli vaziyatlarda qo'llashga harakat qiladilar.

Shuningdek, integratsiyalashgan darslar o'quvchilarda nafaqat o'qish savodxonligini, balki kommunikativ, ijtimoiy va analitik kompetensiyalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim jarayonining sifatini oshirish bilan bir qatorda o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etilgan o'qish darslarining samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi hamda natijalar 1-jadvalda keltirildi. Unda o'quvchilarning matni tushunish, tahlil qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalari an'anaviy va integratsiyalashgan yondashuv asosida foiz ko'rsatkichlarda taqqoslab baholandi.

1-jadval: O'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi bo'yicha natijalar

Ko'rsatgich nomi	An'anaviy (%)	Integratsiyalashgan (%)
Matni tushunish	62 %	81 %
Tahlil qilish	58 %	78 %
Mustaqil fikrlash	55 %	76 %


Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar matn mazmunini chuqurroq anglashga erishdilar. Xususan, ular matndan asosiy g'oyani ajratib olish, yashirin ma'nolarni tushunish hamda muallif pozitsiyasini aniqlashda faolroq ishtirok etdilar. Shu bilan birga, o'quvchilarning savollarga javob berish sifati ham yaxshilangani kuzatildi.

Tahlil natijalari an'anaviy o'qish darslari bilan taqqoslanganda, integratsiyalashgan yondashuv qo'llanilgan guruhlarda o'quvchilarning faolligi va qiziqishi yuqori darajada bo'lganini ko'rsatdi. O'quvchilar matni nafaqat o'qish, balki uni turli fanlar bilan bog'lab tahlil qilishga intildilar. Bu holat ularning bilimlarini tizimli ravishda shakllanishiga va mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Shuningdek, dars jarayonida qo'llanilgan interaktiv metodlar o'quvchilarning kommunikativ faolligini oshirdi^[6]. Guruhda ishlash, fikr almashish va muhokama jarayonlari orqali o'quvchilar o'z nuqtai nazarlarini asoslab berishga harakat qildilar. Natijada, ularning tanqidiy fikrlash va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan yondashuv nafaqat o'qish savodxonligini rivojlantirish, balki o'quvchilarning umumiy intellektual salohiyatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, matni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash orqali o'quvchilarda o'rganilgan bilimlarni amaliy qo'llash ko'nikmalari shakllanadi.

Integratsiyalashgan o'qish darslarini tashkil etish jarayonida (motivatsiya, o'qish, tahlil, refleksiya va natija bosqichlarida) ayrim qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin^[6]. Xususan, o'qituvchilardan har bir bosqichni samarali rejalashtirish uchun yuqori darajadagi metodik tayyorgarlik talab etiladi, vaqtni bosqichlar kesimida to'g'ri taqsimlash zarurati yuzaga keladi hamda turli fanlarga oid materiallarni uyg'unlashtirish jarayoni murakkablik tug'dirishi mumkin. Mazkur muammolarni tizimli yondashuv asosida dars modelini to'g'ri tashkil etish va metodik tavsiyalarni amaliyotga joriy etish orqali bartaraf etish mumkin^[7].



1-rasm: Integratsiyalashgan yondashuv asosida o'qish savodxonligini rivojlantirish modeli

Yuqoridagi 1-rasmdagi model asosida (motivatsiya, o'qish, tahlil, refleksiya va natija bosqichlari izchil tashkil etilganda) olingan natijalar integratsiyalashgan yondashuv asosida o'tkazilgan o'qish darslari o'quvchilarning o'qish savodxonligi kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mazkur metodik yondashuvni ta'lim amaliyotiga tizimli ravishda keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda integratsiyalashgan yondashuv asosida o'qish savodxonligi darslarini tashkil etish metodikasi nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qish jarayonini motivatsiya, o'qish, tahlil, refleksiya va natija bosqichlari asosida izchil tashkil etish o'quvchilarning o'qish savodxonligi kompetensiyalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida aniqlangan ayrim qiyinchiliklarga qaramasdan, integratsiyalashgan yondashuvni samarali amalga oshirish uchun o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, darslarni puxta rejalashtirish va fanlararo integratsiyani to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etilgan o'qish darslari boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi hamda ushbu metodikani ta'lim amaliyotiga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimova, K., Matchonova, G., Sidiqova, M., G'ulomova, X., Yo'ldosheva Sh. Boshlang'ich sinf o'qish kitobi metodikasi. Toshkent, - 2018
2. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching / J. Harmer. – 5th ed. – Harlow : Pearson Education Limited, 2015. – 448 p.
3. Mambetova L.M. Distinctive features of the development of speech competence // "Ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik pedagogikasi: xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent, 18-noyabr 2023-yil, 629-631-betlar
4. Mambetova L.M. Jurayeva D.I. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida integratsiyadan foydalanishning maqsad va vazifalari // Toshkent davlat pedagogika universiteti, Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. - Toshkent, 2025-yil 4-son, 37-bet
5. Mambetova L.M. Some aspects of the development of the speaking competence of students during the lesson process // American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, Volume 03, ISSUE 09, September 2023, 13-18-pages, <https://theusajournals.com/index.php/ajsshr/article/view/1635/1585>
6. Mambetova L.M. The role of reading and understanding the text in the development of speech competence of students // International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education. – Poland, 20th August 2023. 102-page
7. Richards, J. C. Approaches and Methods in Language Teaching / J. C. Richards, T. S. Rodgers. – 3rd ed. – Cambridge : Cambridge University Press, 2014. – 410 p

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.